



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI PUL-KREDIT
SIYOSATINING INFLYATSIYANI PASAYTIRISHDAGI ROLI

Qodirova Dilshoda Botirovna

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

" Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari " kafedrasida o'qituvchisi

Ochilova Dilnoza Ismoilovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda pul-kredit siyosatining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, inflyatsiyani pasaytirishda asosiy stavka, majburiy zaxira normalari va ochiq bozor operatsiyalarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, inflyatsiya, asosiy stavka, inflyatsion targetlash, pul massasi

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические механизмы денежно-кредитной политики в Республике Узбекистан. В частности, научно обосновывается важность ключевой ставки, обязательных резервов и операций на открытом рынке в снижении инфляции.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, инфляция, ключевая ставка, таргетирование инфляции, денежная масса.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms of monetary policy in the Republic of Uzbekistan. In particular, it scientifically substantiates the importance of the key rate, required reserves and open market operations in reducing inflation.

Keywords: monetary policy, inflation, key rate, inflation targeting, money supply.

Hozirgi kunda inflyatsiya masalasi har bir davlat uchun muhim hisoblanadi. Chunki inflyatsiya oshsa, narxlar ko'tariladi va aholining real daromadi kamayadi.



Bu esa iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pul muomalasini to'g'ri boshqarish va inflyatsiyani nazorat qilish zarur hisoblanadi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi asosiy organ — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoblanadi. Markaziy bank turli vositalar orqali pul massasini nazorat qiladi va narxlar barqarorligini saqlashga harakat qiladi.

Pul muomalasining asosiy muhim kursori bu -pul massasi hisoblanadi. Pul massasi xo'jalik aylanmasida muomalada bo'lgan naqd pullar hamda hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi mablag'larning umumiy hajmini ifodalaydi. Pul massasini nazorat qiluvchi organ Markaziy bank hisoblanadi. Bank pul-kredit siyosati vositalarini ya'ni foiz stavkalari, majburiy zaxira normasi, ochiq bozor operatsiyalarini mustaqil belgilaydi. Agar pul massasi haddan tashqari ko'payib ketsa inflyatsiya yuzaga keladi. Inflyatsiyani pasaytirishda asosiy stavka muhim vosita hisoblanadi. Agar Markaziy bank asosiy stavkani oshirsa, tijorat banklari kreditlarni yuqori foizda bera boshlaydi. Natijada odamlar va korxonalar kamroq kredit oladi, pul aylanishi sekinlashadi va iqtisodiy faollik ham oshadi. Majburiy zaxira normalari ham inflyatsiyani boshqarishda katta rol o'ynaydi. Agar bu norma oshirilsa, banklar ko'proq mablag'ni zaxirada saqlaydi va kredit berish hajmi kamayadi bu esa pul massasining oldini ortiqcha ko'payib ketishini oldini oladi.

Ochiq bozor operatsiyalari orqali esa Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish yo'li bilan pul miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Agar qimmatli qog'ozlar sotilsa, bozordagi pul kamayadi, agar sotib olinsa pul ko'payadi. Shu tarzda inflyatsion bosim nazorat qilinadi.

Inflyatsiya turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Eng asosiy sabablardan biri — talabning ortib ketishidir. Agar aholining qo'lida pul ko'payib, lekin bozorda tovarlar yetarli bo'lmasa, narxlar oshadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi ham inflyatsiyaga olib keladi. Masalan, yoqilg'i yoki xom ashyo narxi oshsa, tayyor mahsulot ham qimmatlashadi. Ba'zi hollarda import qilinadigan mahsulotlar narxining oshishi ham ichki bozordagi narxlarga ta'sir qiladi.

Pul-kredit siyosatining ijobiy va salbiy tomonlari



Pul-kredit siyosatining ijobiy tomoni shundaki, u narxlar barqarorligini saqlashga yordam beradi. Inflyatsiya nazorat ostida bo'lsa, investorlar va tadbirkorlar o'z faoliyatini rejalashtirishda ishonch bilan harakat qiladi. Shuningdek, milliy valyuta barqarorligi ham mustahkamlanadi.

Lekin ayrim salbiy tomonlari ham mavjud. Masalan, asosiy stavka oshirilganda kreditlar qimmatlashadi va tadbirkorlik faoliyati sekinlashishi mumkin. Bu esa qisqa muddatda iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiyani boshqarishda aholining kutilmalari ham muhim ahamiyatga ega. Agar odamlar kelajakda narxlar oshadi deb o'ylasa, ular oldindan ko'proq xarid qiladi. Bu esa talabni oshirib, narxlarning yanada ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli Markaziy bank o'z siyosatini ochiq va tushunarli olib borishi zarur.

Menimcha, inflyatsiyani pasaytirishda faqat pul-kredit siyosati yetarli emas. Buning uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish va ichki bozorni tovar bilan to'ldirish ham muhim hisoblanadi. Shunda narxlar barqarorligi uzoq muddat saqlanadi.

Pul kredit vositasi	Qanday ishlaydi	Inflyatsiyaga ta'siri
Asosiy stavka	Foiz stavkasi oshirilsa kredit qimmatlashadi, pasaytirilsa arzonlashadi	Oshirilsa inflyatsiya kamayadi, pasaytirilsa iqtisodiy faollik oshadi
Majburiy zaxira normasi	Banklar mablag'ining bir qismini zaxirada saqlaydi	Norma oshsa pul massasi kamayadi va inflyatsiya pasayadi
Ochiq bozor operatsiyalari	Qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish	Sotilsa pul kamayadi, sotib olinsa pul ko'payadi

Jadval ma'lumotlariga qaraganda, yillar davomida inflyatsiya darajasi o'zgarib borganini ko'rish mumkin. Ba'zi yillarda narxlar tezroq oshgan bo'lsa, keyingi davrda pasayish kuzatilgan. Bu holat davlat tomonidan olib borilgan pul-kredit siyosati bilan bog'liq deb hisoblash mumkin.



Shuningdek, asosiy foiz stavkasi ham inflyatsiya darajasiga qarab o'zgartirilgan. Inflyatsiya oshgan davrda Markaziy bank stavkani ko'targan, bu orqali bozordagi pul miqdorini kamaytirishga harakat qilingan. Natijada keyingi davrda inflyatsiya sekinlashganini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, jadvaldan xulosa qilish mumkinki, foiz stavkasi va inflyatsiya o'rtasida bog'liqlik mavjud. Pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotdagi pul miqdorini tartibga solish va inflyatsiyani nazorat qilish uchun muhim vositadir. Mamlakatda bu siyosatni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi. Pul massasi, foiz stavkasi, majburiy zaxira normalari va ochiq bozor operatsiyalari orqali Markaziy bank iqtisodiy barqarorlikni saqlashga harakat qiladi. Shu vositalar yordamida inflyatsiyani kamaytirish va iqtisodiy muvozanatni saqlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2020.
2. Makroiqtisodiyot. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari va hisobotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti materiallari.
6. Pul, kredit va banklar. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018.